

## Konni Qayta Ishlash Korxonalarida Ish Haqi Hisobi Va Uni Takomillashtirish

**Shodmonov Farrux Isoqul o'g'li**

Navoiy Kon Metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati Janubiy kon boshqarmasi Markazlashtirilgan buxgalteriya bosh buxgalter o'rmosari

**Bahadirov Alisher Komilovich**

Bank Moliya Akademiyasi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedra dotsenti

**Annotatsiya:** Konni qayta ishlash korxonalarida ish haqi va uning shakllari haqida ketadi. Ushbu tezisda mehnat unumdarligi, ish haqini yuritish, to'lov va ularning hisobini yuritish haqida ketadi.

**Kalit so'zlar:** Kon va konni qayta ishlash korxonalari, ish haqi, vaqtbay va ishbay tizimlari, KPI, byudjetlashtirish, mehnat sarflari byudjeti.

Respublikamizda keying yillarda yalpi ichki maxsulot, shu jumladan, sanoat maxsuloti ishlab chiqarish hajmi yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda ayniqsa kon va konni qayta ishlash korxonalarining o'rni beqiyosdir. Shu jumladan mamlakatimizda demografik vaziyatning yaxshiligi va ko'plab o'zlashtirilmagan konlar ularni qayta ishlash korxonalarini vujudga kelmoqda. Konni qayta ishlash korxonalarini ish haqi eng asosiy elementlaridan biri bu ish haqi mehnatga pul shaklida to'lanadigan haq; qiymatning o'zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi. Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnat bozorida kelishiladi. Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o'z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo'lib, uni ishga yollovchilar (korxona, muassasa, tadbirkor) mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt mobaynida ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajanganliklari uchun to'laydilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida, zamonaviy konni qayta ishlash korxonalarida, mehnatning miqdori va sifatiga qarab mehnatga haq to'lashning vaqtbay va ishbay tizimlari qo'llaniladi. Vaqtbay ish haqi shaklida xodim oladigan ish haqi miqdori ishlagan vaqt bilan bog'liq yani ish haqi miqdori mehnat unumdarligi va intensivlik darajasiga bog'liq emas bu esa konni qayta ishlash korxonalarida xarajatlarni hisobini yuritishdagi o'zgarmas xarajatlar sifatida qaraladi. Ishbay ish haqi xodimning ma'lum vaqt mobaynida tayyorlagan maxsulot miqdori bilan o'lchanadi o'zgaruvchan xarajatlar sifatida qaraladi. Konni qayta ishlash korxonalarida vaqtbay mukofotlash va ishbay mukofotlash tizimlari korxonaning foydasi hisobidan ajratiladigan moddiy rag'batlantirish fondining mukofotlash tizimidir. Xodimni rag'batlantirish va mukofotlash tizimlarini rivojlantirish, ularning mehnat samaradorligini oshiradi. Kasbiy rivojlanish imkonyatlari va kadrlar rivoji bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish, inson kapitalini rivojlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonda yetuk malakali kadrlar mantiqiy fikrlash qobiliyatli, ijodiy tafakkuri, o'rganish qobiliyati, yangiliklarga bo'lgan intilishi xodimning intellektual salohiyati korxonaning muvaffaqiyati va rivojlanishi olib keladi. Konni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmining intensiyligini oshirishda zamonaviy texnika va texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, mehnat resurslaridan ratsional foydalanish orqali barcha jabhalarda yuqori ko'rsatkichga erishishga asoslanadi. Konni qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslari intensivligini oshirishda xamda xodimlarni yuqori ish haqi haqiga, rag'batlantirishlarga intilishida KPI (Key Performance Indicator) sistemasini joriy qilish eng to'g'ri yo'llardan biri hisoblanadi. Konni qayta ishlash korxonalarini va uning bo'linmalari xodimlarini ishlab chiqarishdagi tahlilida bo'yicha ikki guruhga bo'lish mumkin: ishlab chiqarish xodimlari va noishlab chiqarish xodimlariga. Korxonalarda xodimlarning tarkibi, mehnat unumdarligi, ish vaqtidan

foydalanim tahlili va boshqa ko'rsatkichlar hisobini yuritishda mehnat sarflari byudjetida hisobotida aks etadi. Konni qayta ishslash korxonalari byudjetni shakllantirilayotganda mehnat sarflari byudjeti alohida o'rinn tutadi. Bu byudjet rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmini bajarish uchun talab qilinadigan zarur ish vaqt soatlari maxsulot yoki xizmat birligi miqdorini maxsulot birligiga mehnat soatlari sarfini ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Shu xujjatda yoki alohida hujjatda mehnat sarfi zarur mehnat sarfini mehnatga haq to'lashning tegishli soat stavkalariga taqsimlab, pul bilan aniqlanadi. Mehnat sarflari byudjeti ma'lumotlaridan tegishlicha davlat statistik hisoboti „mehnat hisoboti“ 1-t shakli taqdim qilinadi. Konni qayta ishslash korxonalarida mehnat sarflari byudjeti tuzilishining maqsadi: xarajatlarni maqbullashtirish, ishlab chiqarish tannarxni shallanishining nazoratini amalgalashish, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar asosida kelgusidagi moliyaviy qiyinchiliklarda davrida xodimlarning zaxira qisqarishlar ro'yxatini shakllantirish yoki aksincha xodimlarning zaxirasini yaratish, bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik maxsulot, baholashda haqiqatda erishilgan byudjetdan chetga chiqqanlik va boshqalar. Mehnat sarflari byudjetdan chetga chiqqanlik (og'ish) tahlili quyudagicha bo'lishi mumkin:Ish haqi stavkasi bo'yicha og'ish, mehnat unumdarligi bo'yicha og'ish, mehnat sarflari bo'yicha jami og'ish va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musayeva, Zamira; Yusupov, Qodirjon (2000-2005). "Ish haqi". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Thompson, E. P. (1967). „Time, Work-Discipline, and Industrial Capitalism“. Past and Present. № 38. 56–97-bet. JSTOR 649749.
3. Dohrn-van Rossum, Gerhard,. History of the hour: Clocks and modern temporal orders, Thomas Dunlap (trans.), Chicago: University of Chicago Press, 1996. ISBN 9780226155104.
4. Ezzamel, Mahmoud (2004-07). „Work Organization in the Middle Kingdom, Ancient Egypt“. Organization. 11-jild, № 4. 497–537-bet. ISSN 1350-5084.

Open Conferences